

**O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHNING
ASOSIY TAMOYILLARI VA BU BORADA KO‘RILAYOTGAN CHORA-
TADBIRLAR**

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti sotsiologiya
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda insonlar o‘rtasida ko‘p ishlatiluvchi gender tengligi tushunchasining nima ekanligi, o‘tgan davrlarda erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning haq-huquqlari borasidagi farqlar, erkaklarga ko‘rsatilgan imkoniyatlar va ayollarga bo‘lgan munosabat, ularning ta’lim-tarbiya olish borasidagi erkinliklari haqidagi qarashlarni ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga yurtimizda hozirgi kunda gender tengsizligini oldini olish, erkak va ayollar o‘rtasida teng haq-huquq va imkoniyatlarni yaratish maqsadida davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va chora-tadbirlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, biologik jins, mehnat kodeksi, saylov huquqi, siyosiy tizim, mulkiy huquq.

Avvalo, "gender" so‘zi lotincha "genus" so‘zidan olingan bo‘lib, "zot, jins, kelib chiqish" ma’nosini anglatadi. Agarda biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo‘lsa, gender ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda erkak va ayollarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gender tenglik- bu oilada erkak va ayol o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Gender tengligi

tamoyili insonni shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek jamiyatda hayotning barcha sohalarida erkak va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Gender-xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisod, huquq, mafkura, madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladi.

XX asr oxiridagi falsafiy va sotsiologik tahlillar jinsiylik tabiati, jinslararo munosabatlar va xotin-qizlar masalasiga yangicha qarashni ifodaladi. Jamoaning eng dolzarb muammolari-hokimiyat, zo'ravonlik, shaxsning o'zini anglashi va ozodligi sanoatlashgan davrda individning jinsiy mos kelishi va tegishli ijtimoiy maqomi muammolari sifatida oydinlashtirildi. Shunda genderning yangi konsepsiyasi xotin-qizlar masalasiga kengroq yondashib, uning jinsiy tafovutga oid muammosini maydonga ko'chirdi.

Insonlarning asosiy huquqlarini buzulishi gender tengsizligiga olib keladi va bu butun dunyoda kuzatiladigan va keng tarqalgan holat. Gender tengsizlik birinchi navbatda ayollarning jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi. Ularni ta'lim, ish bilan ta'minlash, siyosiy va hukumat qarorlarini qabul qilishda to'liq va teng ishtirok etishlari uchun imkoniyatlarning to'liq emasligi gender tengsizligi holatini yuzaga keltiradi.

Bilamizki, har bir inson tug'ulishi va muomila layoqatiga yetgach o'zining huquqlariga ega bo'ladi. Lekin oldinlari ayollarga ba'zi huquqlardan foydalanish cheklab qo'yilgan. Bulardan "saylov huquqi" ni olsak. Saylov huquqi berilgunga qadar ayollar har bir mamlakatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirishdan mahrum

edilar. Ovoz berish huquqini qo‘lga kiritgandan so‘ng, ayollar o‘zlarining erkak hamkasblariga mutanosib ravishda saylov uchastkalarida qatnashishi va bunga ko‘nikishiga ko‘p yillar kerak bo‘ldi. Saylov huquqidan foydalanish xotin-qizlarga siyosiy tizimlarda o‘z kuchlarini va siyosatdagi o‘rinlarini his qilishiga sabab bo‘ldi.

Xususan, davlatimizda gender tengsizligini oldini olish, jamiyatda ayollarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning ta‘lim olish, davlat ishida ishlashi va boshqa ko‘plab imkoniyatlar yaratish borasida qarorlar qabul qilinmoqda.

Imunladan, O‘zbekistonda ”gender tengligi to‘g‘risida”gi qonun 2019-yilda qabul qilingan bo‘lib, unda ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar kafolatlari, kamsitilmaslik qoidalari, davlat xizmatlaridan teng foydalanish, davlat ishlarida teng ishtirok etishni rag‘batlantirish, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlaridan erkin foydalanishlarini yaxshilash nazarda tutilgan. Bu qonun ayollarning nikohdagi mulkiy huquqlarini himoya qilinishini yaxshiladi. 2022-yilda O‘zbekiston Mehnat kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan teng mehnat evaziga teng ish haqi kafolatlari qo‘shildi, himoyalangan kasblarda ishlaydigan ayollarga nisbatan cheklovlar olib tashlandi, ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatishda jinsiga qarab kamsitish taqiqlandi. Yangi mehnat kodeksi 2023-yil kuchga kirdi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning ijtmoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;

-aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT ning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz",-deb ta'kidladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo'lida muhim chora-tadbirlar ko'rildi. Gender tengligi masalalari milliy qonunchiligimizda ham o'z aksini topgan, ya'ni 2019-yilda 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 6-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari" yozilgan.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni ta'minlaydi.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlar ta'minlashini kafolatlaydi.

Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish va ularning oldini olish maqsadida

davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir maxsus choralar ko'riladi.

Hammaga ma'lumki, avvlagi davrlarda ayollar ko'proq uy ishlari bilan shug'ullanishi kerkaligi, ularning davlat ishida ishlashi mumkin bo'lmagan. Ammo hozirda gender tengsizligini oldini olishga qaratilgan qarorlar asosida davlat ishida ishlaydigan, erkaklar bilan teng maosh olish uchun imkoniyatlar cheksiz. Davlat organlarining kadrlar xizmatlari zimmasiga davlat xizmatining tegishli lavozimlarida ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlar davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda gender tenglikni ta'minlash va bu borada qonun va chora-tadbirlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Hozirda gender tengligiga oid qarorlar natijasida ayollarni ta'lim olishidagi to'siqlar bartaraf etildi, saylov huquqiga ega bo'ldi, davlat ishlarida erkaklar bilan bir xil mavqeda va maosh olishda, shu bilan birga ta'lim jarayonida xotin-qizlarga keng imkoniyat eshiklari ochib berildi. Xotin-qizlar dunyo aholisining yarmini tashkil qiladi, bu inson salohiyatining yarmiga teng. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligini, ya'ni jamiyatda gender tenglikni ta'minlash to'liq va barqaror ijtimoiy rivojlanishda asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madaminov. M. Gender tengligi tushunchasi, uning mohiyati va ilmiy tahlili. INTERNATIONAL JOURNAL OF INTEGRATIVE AND MODERN MEDICINE. 2024.

2.USAID Amerika xalqidan.Gender tengligi va gender zo‘ravonligi savol va javoblarda.Toshkent.2024.

3.Sh.Ahmadjonova. Gender tengligi. Ekonomika va sotsium. 2024.
www.iupre.ru.

4.N.Egamberdiyeva. “O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, istiqbol va vazifalar” “Mahalla va oila nashriyoti” Toshkent-2022.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”qonuni. Toshkent, - 2019-yil 2-sentabr. O‘RQ-562-son.